

ONLAYN SUD SANKSIYASI TUSHUNCHASI, MAZMUNI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

“Prokurorlik faoliyati” yo’nalishi

magistratura tinglovchisi

Ibragimov Otabek Nodir o’g’li

e-mail: otabekibragimov0007@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada onlayn sud sanksiyasi institutining nazariy huquqiy asoslari, onlayn sud sanksiyasi tushunchasi, mazmun-mohiyati hamda huquqiy tabiati, bundan tashqari, “onlayn sud sanksiyasi” tushunchasi va uning rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. Tadqiqotda onlayn sud sanksiyasi an’anaviy sanksiya berish tartibining zamonaviy raqamli shakli sifatida baholanib, u bevosita protsessual tezkorlikni ta’minlash, byurokratik kechikishlarni kamaytirishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so’zlar: onlayn sud sanksiyasi, nazariy-huquqiy asoslar, axborot xavfsizligi, byurokratik kechikishlar, huquqiy tabiat.

Аннотация: В данной статье анализируются теоретико-правовые основы института онлайн-санкции суда, ее понятие, сущность и правовая природа, а также рассматриваются концепция «онлайн-санкции суда» и этапы ее развития. В исследовании онлайн-санкция суда оценивается как современная цифровая форма традиционной процедуры выдачи санкций, а также научно обосновывается ее значение в непосредственном обеспечении процессуальной оперативности и сокращении бюрократических задержек.

Ключевые слова: онлайн-санкция суда, теоретико-правовые основы, информационная безопасность, бюрократические задержки, правовая природа.

Abstract: This article analyzes the theoretical and legal foundations of the institution of online court sanctions, its concept, essence, and legal nature, as well as the evolutionary stages of the "online court sanction" concept. In the research, the online court sanction is evaluated as a modern digital form of the traditional sanctioning procedure, and its significance in directly ensuring procedural efficiency and reducing bureaucratic delays is scientifically substantiated.

Keywords: online court sanction, theoretical and legal foundations, information security, bureaucratic delays, legal nature.

“Sud sohasiga axborot texnologiyalarini keng joriy etish – bu nafaqat qulaylik, balki korrupsiyaning oldini olish, ochiqlik va shaffoflikni ta’minlashning eng samarali yo’lidir.”

Shavkat Mirziyoyev

So'nggi yillarda zamonaviy yurisprudensiyada raqamli texnologiyalarning zaruratini yuzaga keltirmoqda. Global axborot almashinuv sharoitida sud-huquq tizimini elektronlashtirish va xalqaro miqyosda “raqamli odil sudlov” xususan “onlayn sud sanksiyasi” konsepsiyasini amaliyotga joriy etish nafaqat huquqni qo'llash amaliyotini yuksaltirish, balki inson huquq va erkinliklarini ta'minlashning sifat jihatidan yangi institutsional kafolatlarini shakllantirish vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasida keltirilgan hokimiyatlar bo'linishi bir turi sifatida sud hokimiyati keltirib o'tilgan. Sud hokimiyati davlat va jamiyat hayotini muvofiqlashtirish, mamlakatda adolatli turmush tarzini tayyorlash borasida muhim poydevor hisoblanadi.

Sudlar tomonidan sanksiya berish institutining o'zi asrlar davomida sayqallanib kelmoqda. Amerikalik huquqshunos olim **Ash Moor** o'z asarida sanksiya berish tarixiga to'xtalib o'tgan. Jumladan unda aytilishicha, sanksiya berish tizimining vujudga kelishiga XVIII asrning oxirlariga kelib Angliyada aholi huquq va erkinliklari daxlsizligiga hukumatning asossiz aralashuvidan himoya qilish muammosi sabab bo'lgan. Chunki aynan shu davrda hukumat a'zolari tomonidan Angliyada uylarni tintuv qilish hamda mulkni olib qo'yish holatlari tez-tez va zo'ravonlik bilan amalga oshirilayotgan edi. Buning natijasida ingliz milliy huquqi hukumatning uy-joyga ba'zi aralashuvini asossiz ekanligi, shuning uchun jabrlangan aholi tovon puli olish huquqiga ega ekanligi haqidagi g'oyani ilgari surgan. O'sha davrda umumiy sanksiyalar bir tomonlama ya'ni hukumat manfaatlari yo'lida chiqarilgan va hukumat a'zolariga har qanday shaxsiy shubhalari bilan hech qanday isbotsiz tintuv o'tkazish hamda olib qo'yish huquqini bergan. Bunday sanksiyalar asosan Amerika va Angliya koloniyalarida muxolifatni bostirish uchun ishlatilgan. Eng katta shov-shuvlarga sabab bo'lgan Vinks ishida bitta sanksiya umumiy 5 ta uyni tintuv qilish va 49 kishini qamoqqa olish uchun ishlatilgan. Natijada mamlakatda ko'tarilgan norozilik natijasida sud sanksiyani yuridik kuchga ega emas deb topib, fuqarolik ishlari bo'yicha hay'at raisi Vinks va uning tarafdorlarini uy-joyga asossiz kirishda va ruxsatnomasiz fuqarolarni qamoqqa olishda aybdor deb topib, bu uchun tovon puli undirgan. Bu voqealardan so'ng shunga o'xshash ko'plab sanksiyalar yuridik kuchga ega emas deb topilgan va hukumat amaldorlaridan jami 100000 funtdan ortiq pul mablag'i tovon sifatida undirilgan. Sud xulosalaridan birida Britaniya sud raisi Lord Kamden “Insonlarning jamiyatga birlashishidan ko'zlangan buyuk maqsad – ularning mulk daxlsizligini ta'minlashdir”, bundan tashqari, “bu huquq barcha holatlarda muqaddas va daxlsiz bo'lib qoladi” degan edi.

Sud sanksiyasi jinoyat protsessida ayrim tergov harakatlarini amalga oshirish yoki majburlov choralari qo'llash uchun sudning roziligini olishdir. Ushbu institut sud nazoratining muhim elementi bo'lib, u davlat organlarining majburlov choralari

qo‘llashda qonuniylikni ta‘minlashga shuningdek, fuqarolarning erkinligi, daxlsizligi, hayoti va xususiy mulkiga aralashish bilan bog‘liq harakatlar ustidan sud nazoratini ta‘minlashga xizmat qiladi. Jumladan, Konstitutsiyamizning 20-moddasida keltirilganidek, “Insonning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emas”.

Irlandiya Huquqni isloh qilish komissiyasining (Law Reform commission) **“Tintuv orderlari (sanksiya) bo‘yicha tahliliy-muhokama hujjati** (Issues Paper on Search Warrants)” da keltirilganidek, “Simple Imports Ltd v Revenue Commissioners” sud ishida Oliy sud shunday ta‘kidlagan, “Tintuv order(sanksiya)lari politsiya va boshqa xodimlarga fuqaroning turar joyiga yoki shaxsiy mulkiga kirish, tintuv o‘tkazish va ushbu joydan topilgan ashyolarni olib qo‘yish, shuningdek, ushbu harakatlar davomida ichkariga kirish va order orqali ruxsat etilgan tintuv hamda olib qo‘yishni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan kuchni ishlatish huquqini beradi. Bular jamiyatni himoya qilish maqsadida politsiya va boshqa vakolatli organlar muayyan holatlarda foydalanishi zarur bo‘lgan vakolatlardir. Biroq, ular shaxsning shaxsiy mulkiga majburiy ravishda kirishga ruxsat bergani sababli, sudlar ushbu vakolatlarni qo‘llashdan oldin qonun chiqaruvchi organ tomonidan belgilangan shartlarga qat‘iy rioya etilishini ta‘minlashga doimo e‘tibor qaratishlari shart”. Xulosa qilib aytish mumkinki, protsessual majburlov choralari amalga oshirish vakolatini beruvchi sanksiya berish fuqarolarning shaxsiy daxlsizlik va boshqa konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilish maqsadida sud tomonidan amalga oshirilishi to‘laqonli asosli hisoblanadi. Bundan tashqari, AQSH Konstitutsiyasiga kiritilgan To‘rtinchi tuzatishda shunday deyilgan, “Xalqning o‘z shaxsi, uyi, hujjatlari va mulki daxlsizligini asossiz tintuv hamda olib qo‘yishlardan himoya qilish huquqi buzilmasligi kerak. Hech qanday sanksiya yetarli asoslar mavjud bo‘lmasdan, qasamyod bilan tasdiqlanmasdan hamda tintuv qilinadigan joy va olib qo‘yiladigan shaxslar yoki narsalar aniq tavsiflanmasdan turib berilmaydi”.

So‘nggi yillarda sud jarayoni samaradorligini oshirish, vaqt va xarajatlarni kamaytirish maqsadida sud-huquq sohasida sud sanksiyalarini onlayn berish tartibi sekin-asta yo‘lga qo‘yilyabti. Onlayn sud sanksiya tizimi uzoq rivojlangan tarixga ega bo‘lib, uning rivojlanish ketma-ketligini Amerika misolida oladigan bo‘lsak, amerikalik tadqiqotchi olim **Tracy Hresko Pearl** o‘zining **“On Warrants & Waiting: Electronic Warrants & The Fourth”** maqolasida 1977-yilda Amerikada Kongress Jinoyat protsessual qoidalariga o‘zgartirish kiritib, sanksiyalarni telefon orqali olishga ruxsat berganligi haqida yozadi. Bu orqali Kongres bevosita politsiyaga sanksiyalarni tezroq yaratish imkonini berishni xohlagan. Keyinchalik 1993-yil yana o‘zgartirish kiritilib endi sanksiyalarni olish jarayonida faks apparatlaridan foydalanishga ruxsat berilgan. 2006-yilda esa bu tizim yanada takomillashtirilib Kongress sudyalarga

sanksiyalarni berishda ishonchli elektron vositalardan foydalanishga ruxsat berdi. Bu o'zgarish natijasida maslahat qo'mitasi sud tizimida texnologiyalardan foydalanish kengayib borayotganini tan olgan. Sanksiya arizalarini tayyorlash va topshirishning ushbu texnologik usullari, shubhasiz, an'anaviy sanksiya olish tartibidan ancha qulayroq edi. Shu tariqa deyarli 50 yillik rivojlanish natijasida hozirgi kunda onlayn sud sanksiyasi AQShda faoliyat olib bormoqda.

Bundan tashqari onlayn sud sanksiyasining rivojlanish bosqichlarini umumiyashtirgan holda, amerikalik falsafa doktori **Gerald Lee Ward** o'zining **“Electronic Warrant Systems: The Effect of Advanced Technologies on Arrest Performance”** nomli dissertatsiyasida quyidagi bosqichlarni keltirib o'tadi. Eng avvalo, an'anaviy (qog'oz va faks) davr bo'lib, bu davrda tergovchi sanksiya so'rovini qog'ozda yozgan va uni prokurorga va sudga shaxsan o'zi olib borgan. Bu bosqichning eng asosiy kamchiligi vaqtning ko'p yo'qotilishi natijasida hujjatlarning kechikib yetib borishida bo'lgan. Undan keying bosqich bu qayd etib borish bosqichi bo'lib, bunda hujjatlar qo'lda yozilganiga qaramasdan ular komputer bazasiga ham kiritila boshlangan. Bunda sanksiya berilgach uning nusxasi skaner qilingan yoki ma'lumotlar elektron bazaga kiritilgan. Keyinchi uchunchi bosqichda tergovchi arizani maxsus portal orqali yuborgan. Sudya arizani ko'rib chiqib Elektron raqamli imzo orqali imzolagan va bu elektron hujjat qog'ozning o'rnini to'liq bosgan. To'rinchi bosqichda esa hujjat nafaqat sud organi elektron bazasida balki raqamli iz sifatida qolib qolgan organlarning idoralararo elektron bazalarida ham bevosita ko'rinib turgan. Bu orqali ma'lum bir shaxsga nisbatan protsessual majburlov chorasi qo'llash haqida sanksiya mavjudligi qolgan organ xodimlariga ham ko'rinib turganligi natijasida shaxsni ushlash yoki unga nisbatan majburlov chorasini imkon qadar tezroq qo'llash imkoniyati tug'ilgan. Oxirgi bosqich eng integratsiyalashgan bosqich bo'lib, bunda onlayn sud sanksiyasi eng yuqori cho'qqiga chiqqan, bu orqali o'ziga nisbatan sudning sanksiyasi mavjud shaxsni tezroq ushlash va unga nisbatan majburlov choralari tezroq qo'llash maqsadida sanksiya berilganidan so'ng tizim orqali avtomatik ravishda ushbu shaxsning har qanday harakatiga nisbatan hattoki bank hisoblariga ham ta'qiq qo'yiladi. Bunda asosiy jihat sanksiya berish jarayonida sudya va tergovchi o'rtasida videokonferensaloqa o'rnatiladi. Shu tariqa onlayn sud sanksiyasi berish institute bugungi kunga qadar sayqallanib rivojlanib bormoqda.

Onlayn sud sanksiyasi - bu sud tomonidan protsessual majburlov choralari qo'llashga elektron axborot tizimlari orqali masofadan turib ruxsat berish mexanizmidir. Onlayn sud sanksiyasiga turli maqolalar va dissertatsiyalarda turlicha tarif berib o'tilgan. Xususan amerikalik falsafa doktori **Gerald Lee Ward** o'zining **“Electronic Warrant Systems: The Effect of Advanced Technologies on Arrest Performance”** nomli dissertatsiyasida quyidagicha keltirib o'tgan, “Onlayn sud sanksiyasi bu huquqni muhofaza qilish organlari xodimlariga ma'lum bir shaxsni

ushlash hamda unga nisbatan jinoiy ayblovlar qo'yish uchun sud majlisiga olib kelish to'g'risidagi sud qarori ya'ni sanksiyasidir. Onlayn sud sanksiyasi bu hibsga olish orderining yuridik vakolatga ega elektron yozuvi hamda hibsga olish orderi yozuvlarini so'rash, ro'yxatga olish, tarqatish, ijro etish va bekor qilishni qo'llab-quvvatlaydigan kompyuter axborot tizimidir". Shuningdek u o'z ilmiy ishida onlayn sud sanksiyasi sudlar tomonidan beriladigan va huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan ijro etiladigan protsessual majburlov choralari qo'llash uchun sanksiya bo'lib, u jinoiy odil sudlov tizimining ajralmas elementi hisoblanadi.

Onlayn sud sanksiyasi berish rivojlangan mamlakatlarda, xususan Amerikada amerikalik tadqiqotchi olim **Tracy Hresko Pearl** o'z maqolasida keltirib o'tgan shaklda amalga oshiriladi. Avvalo, politsiya xodimi sanksiya so'rovini tayyorlab, uni sudga raqamli shaklda yuboradi. Shundan so'ng, navbatchi sudya matnli xabar yoki elektron pochta orqali sanksiya arizasi kutilayotgani haqida bildirishnoma oladi va ushbu arizani elektron sanksiya dasturi orqali ko'rib chiqadi. Agar shtat qonunchiligi arizachini og'zaki so'roq qilishni yoki arizachining og'zaki qasamyod yoxud tasdiq berishini talab qilsa, sud ushbu talablarni bajarish uchun Skype yoki FaceTime kabi videoaloqa texnologiyalaridan foydalanishi mumkin. Sudya sanksiya so'rovi bo'yicha qaror qabul qilgach, ushbu qarorni politsiyaga raqamli tarzda yetkazadi. Masalan, Yuta shtatida, agar sudya sanksiya talablari bajarilgan deb hisoblasa, u "kichik yashil tepaga qaragan bosh barmoq" (thumbs up) belgisini bosishi mumkin, bu politsiya harakatni davom ettirishi mumkinligini bildiradi. Agar u sanksiyada muammo bor deb hisoblasa, qizil pastga qaragan bosh barmoq belgisini bosishi va xodimga ariza nima uchun rad etilgani haqida yozma tushuntirish yuborishi mumkin.

Taniqli amerikalik huquqshunos olimlar **Gerald Lee Ward** ("Electronic Warrant Systems: The Effect of Advanced Technologies on Arrest Performance") va **Ash Moor** ("Digital Effects: The Fourth Amendment and Computer Searches Warrants") o'z ilmiy ishlarida onlayn sud sanksiyasi xususida 2 xil yondashuvni ilgari surishgan, Gerald Lee Ward fikricha, onlayn sud sanksiyasida tezkorlik birinchi o'rinda tursa, Ash Moor fikricha huquqiy kafolat birinchi o'rinda turishi kerak. Xususan, Gerald Lee Wardning shaxsiy tahlili shuni ko'rsatadiki, jinoyatchilikka qarshi kurashish va onlayn sud sanksiyasi tizimining samarali ishlashi uchun eng avvalo tezkorlik muhim. Tizimni yuqorida keltirib o'tilgan 5 bosqichdan 4 va 5-bosqichlarga olib chiqish jinoyatchilikka qarshi kurashish uchun samarali vosita hisoblanadi. Chunki tizim qancha inetgratsiyalashsa va avtomatlashsa shunchalik tez faoliyat olib borish imkonini beradi. Ash Moorning fikricha esa, shaxsiy daxlsizlik birinchi o'rinda turishi lozim. Bu orqali raqamli dunyoda asossiz tintuvlarning oldini olish mumkin. Uning fikricha hech qaysi texnologiya sudyaning sinchkovlik bilan tekshirish o'rnini bosa olmaydi, shuningdek, sanksiya aniq bir harakatlar uchun berilishi kerak, masalan, shaxsdan aynan nimani, aynan qanday yo'l bilan olish

kerakligi sanksiyada aniq belgilanishi kerak, shundagina onlayn sanksiya “cheksiz vakolat”ga aylanib qolmaydi. Ikkala mualliflarning qarashlari ham o‘z o‘rnida asosli hisoblanadi va biz O‘zbekiston modeli uchun ikkala qarashlardan ham foydalanishimiz kerak. Masalan, **Gerald Lee Ward**ningcha qidiruvga sanksiya berilgan shaxslarni “issiq iz”dan ushlashda tezkorlikdan foydalanilsa, **Ash Moor** ta’limotidan esa sudlar tomonidan onlayn sanksiyalarni puxta o‘rganib chiqib shaxsning hayoti va mulki daxlsizligi, shuningdek konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari cheklanmasligini ta’minlash maqsadida foydalanish muhim.

Xulosa qilib aytish mumkinki, onlayn sud sanksiyasi tizimi bu shunchaki qog‘oz hujjat aylanishini elektron shaklga o‘tkazish emas, balki protsessual harakatlarda tezkorlikni oshirish, byurokratik to‘siqlarsiz va axborot xavfsizligini ta’minlagan holda faoliyat yuritishni ham anglatadi. Onlayn sud sanksiyasi tizimini oddiy ma’lumotlar bazasidan to‘liq integratsiyalashgan axborot almashinuv bazasiga aylantirish protsessual harakatlarni amalga oshirishda tezkorlikni ta’minlovchi omil hisoblanadi. Onlayn sud sanksiyalari modelini takomillashtirish – bu texnik tezkorlikni protsessual daxlsizlik bilan sintez qilish demakdir. Tizimni to‘liq integratsiyalashgan (5-bosqich) holatga keltirish nafaqat huquqni muhofaza qilish organlarining harakat samaradorligini oshiradi, balki jinoyat protsessining barcha ishtirokchilari uchun shaffof, adolatli va xavfsiz raqamli huquqiy muhitni shakllantiradi. Bu esa, o‘z navbatida, sud hokimiyatining nufuzini va fuqarolarning odil sudlovga bo‘lgan ishonchini yangi sifat bosqichiga ko‘tarishga xizmat qiladi.

Onlayn sud sanksiyasi instituti jinoyat-huquqiy tizimga endi kirib kelayotganligi sababli, bugungi kunda bevosita “onlayn sud sanksiyasi” tushunchasiga qat’iy yuridik ta’rif berish dolzarb muammo hisoblanadi. Shu sababli, Jinoyat protsessual kodeksiga 31²-modda sifatida “onlayn sud sanksiyasi”ga quyidagi ta’rif kiritish loyihasi taklif etiladi:

“31²-modda. Onlayn sud sanksiyasi

Onlayn sud sanksiyasi - shaxsning huquq va erkinliklarini qonuniy cheklovchi protsessual majburlov choralarini qo‘llash yoxud tergov harakatlarini o‘tkazish to‘g‘risida vakolatli mansabdor shaxsning elektron shakldagi iltimosnomasiga asosan, sud organi vakolatli mansabdor shaxsi tomonidan maxsus himoyalangan axborot tizimi orqali, real vaqt rejimida ko‘rib chiqiladigan va elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan holda chiqariladigan elektron sud ajrimidir.

Onlayn sud sanksiyasi asliga to‘g‘ri ekanligi sudning muhr bosilgan va imzolangan qog‘oz shaklidagi ajrimi (qarori) bilan bir xil yuridik kuchga ega.

Onlayn sud sanksiyasini berish jarayonida axborot xavfsizligi va shaxsga doir ma’lumotlarning maxfiyligi qonunchilikda belgilangan tartibda ta’minlanadi”.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son
2. Issues Paper on Search Warrants. Law Reform Commission (LRC IP 4-2014). – Dublin: Law Reform Commission, 2014. – P. 1–14.
3. Moore, A. (2014). Digital Effects: The Fourth Amendment and Computer Searches Warrants. Oklahoma Journal of Law and Technology, 10(1), 67.
4. Pearl T.H. On Warrants & Waiting: Electronic Warrants & The Fourth Amendment // Indiana Law Journal. – 2023. – Vol. 99. – Iss. 1, Article 1. – P. 1–42.
5. Ward G. L. Electronic Warrant Systems: The Effect of Advanced Technologies on Arrest Performance (Elektron order tizimlari: Ilg'or texnologiyalarning hibsga olish samaradorligiga ta'siri): PhD dissertatsiyasi. – Walden University, 2016. – 179b